

## **Ikkinchi ta'lim va undan keyingi oliy ta'lim (2-mutaxassislik) abituriyentlari uchun ona tili fanidan namunaviy savollar**

1. Orfografiya bo'limi haqida ma'lumot bering.
2. Tilning aloqa-munosabat vositasi ekanligini izohlang.
3. Tilshunoslikning obyekti, fanning vazifalari va muammolari haqida o'z fikrlaringizni bayon qiling.
4. Fonetika bo'limi haqida ma'lumot bering.
5. Unli tovushlar hamda ularning tasnifini tushuntiring.
6. Undosh tovushlar tasnifini tushuntiring.
7. O'zbek tilida urg'uning xususiyatlari hamda vazifalari haqida ma'lumot bering.
8. Bo'g'in hamda bo'g'in ko'chirish tamoyillari haqida o'z fikrlaringizni bayon qiling.
9. Fonetik o'zgarishlar: tovush tushishi, tovush ortishi hamda tovush almashishi hodisalari haqida gapiring.
10. Orfoepiya qoidalari haqida ma'lumot bering.
11. Bosh harflar imlosi haqida ma'lumot bering.
12. Tilshunoslikda tutuq belgisining ishlatilish o'rinlari haqida o'z fikringizni bildiring.
13. Yozuv va uning turlari haqida gapiring.
14. Yozuvning qay tarzda paydo bo'lganligi haqida ma'lumot bering.
15. Alifbo va harflar haqida ma'lumot bering.
16. Til oilalari tasnifi haqida gapiring.
17. Turkiy tillar oilasi haqida o'z fikringizni bildiring.
18. So'z turkumlari haqida tushuncha bering.
19. Ot so'z turkumi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
20. Turdosh otlar va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
21. Atoqli otlar va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
22. Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
23. Otlarning lug'aviy shakllari haqida ma'lumot bering.
24. Otlarning son shakllari haqida ma'lumot bering.
25. Otlarning egalik shakllari haqida ma'lumot bering.
26. Otlarning kelishik shakllari haqida ma'lumot bering.
27. Sifat so'z turkumi haqida tushuncha bering.
28. Sifat darajalari haqida ma'lumot bering.
29. Son so'z turkumi haqida tushuncha bering.
30. Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
31. Miqdor son va uning turlari haqida ma'lumot bering.
32. Tartib son haqida ma'lumot bering.
33. Olmosh so'z turkumi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
34. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari haqida ma'lumot bering.
35. So'roq va o'zlik olmoshlari haqida ma'lumot bering.
36. Fe'l so'z turkumi haqida tushuncha bering.
37. Fe'lning zamon shakllari haqida ma'lumot bering.
38. Fe'lning shaxs-son shakllari haqida ma'lumot bering.

39. Ravish soʻz turkumi haqida tushuncha bering.
40. Yordamchi soʻz turkumlari haqida maʼlumot bering.
41. Bogʻlovchilar haqida maʼlumot bering.
42. Koʻmakchilar haqida maʼlumot bering.
43. Gap turlari haqida maʼlumot bering.
44. Gaplar maqsadiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
45. Soʻroq gaplarning hosil boʻlish shakllari haqida maʼlumot bering.
46. Gap boʻlaklari va ularning turlari haqida tushuncha bering.
47. Abzatsning xususiyatlarini tushuntiring.
48. Koʻchirma gaplar haqida maʼlumot bering.
49. Oʻzlashtirma gap va koʻchirma gap farqini tushuntirib bering.
50. Sodda gap va uning mazmuniy qurilishini tushuntirib bering.
51. Ega va uning gap qurilishidagi oʻrmini tushuntiring.
52. Qoʻshma gap va uning turlari haqida maʼlumot bering.
53. Gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari haqida maʼlumot bering.
54. Sodda gap turlari farqini tushuntirib bering.
55. Sodda yigʻiq gapni tushuntirib bering.
56. Sodda yoyiq gapni tushuntirib bering.
57. Gapdagi bogʻlamalar haqida tushuncha bering.
58. Gapning sintaktik tahlilini tushuntirib bering.
59. Soʻz birikmasi haqida tushuncha bering.
60. Soʻz birikmasi turlari haqida maʼlumot bering.
61. Gaplardagi toʻldiruvchi boʻlagi haqida tushuncha bering.
62. Gaplardagi vositali toʻldiruvchini tushuntiring.
63. Gaplardagi vositasiz toʻldiruvchi haqida maʼlumot bering.
64. Gaplardagi aniqlovchi va uning turlari haqida maʼlumot bering.
65. Gapning muhim belgilarini sanang.
66. Gapda tinish belgilarining ishlatilishi haqida maʼlumot bering.
67. Matn va uning turlarini tushuntiring.
68. Leksikologiya boʻlimi haqida maʼlumot bering.
69. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari haqida maʼlumot bering.
70. Metafora haqida maʼlumot bering.
71. Metonimiya hamda sinekdoxa hodisalariga taʼrif bering, misollar keltiring.
72. Omonimlar va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
73. Sinonimlar hamda ularning turlari haqida maʼlumot bering.
74. Antonimlar va ularning xususiyatlari haqida maʼlumot bering.
75. Paronimlarning lingvistik xususiyatlari haqida oʻz fikringizni bildiring.
76. Neytral leksika haqida fikringizni bayon qiling.
77. Boʻyoqdor leksika haqida maʼlumot bering.
78. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari haqida gapiring.
79. Soʻz maʼnolarining kengayishi hamda torayishi hodisasini misollar bilan tushuntiring.
80. Soʻz va uning lugʻaviy maʼnosi haqida gapiring.
81. Soʻz lugʻaviy maʼnosining taraqqiyoti haqida maʼlumot bering.
82. Soʻz yasalishi jarayonini misollar bilan tushuntiring.

83. Tilshunoslikning frazeologiya bo‘limi haqida ma’lumot bering.
84. So‘z birikmasining o‘z ma’nosida hamda ibora holatida kelishini misollar bilan tushuntiring.
85. Tilshunoslikning dialektologiya bo‘limi haqida ma’lumot bering.
86. Shevalarning adabiy tilga ta’siri masalasi haqida gapiring.
87. Tilshunoslikning leksikografiya bo‘limi haqida ma’lumot bering.
88. Lug‘at hamda lug‘at turlari haqida o‘z fikringizni bildiring.
89. Imlo lug‘atlari haqida ma’lumot bering.
90. Izohli lug‘atlar haqida ma’lumot bering.